

TASVIRIY SAN'AT 6

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
6-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2022

UO'K 75(075.3)
KBK 85.14ya72
M 88

Tuzuvchilar:
Xusan Muratov, Dilnoza Mirxakimova, Kamoliddin Abdullayev

Taqrizchilar:

B. Baymetov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti san'atshunoslik fakulteti tasviriy san'at kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi.

M. Axmedov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasviriy san'at kafedrasi dotsenti.

S. Mansurova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 274-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi.

Sh. Tursunova – Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi.

Tasviriy san'at [Matn]: 6-sinf uchun darslik / X. X. Muratov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 128 b.

ISBN 978-9943-8173-2-6

UO'K 75(075.3)
KBK 85.14ya72

Shartli belgilari:



– mavzuni mustahkamlash
uchun savollar



– uyga vazifa

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiysi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-8173-2-6

© Respublika ta'lim markazi, 2022

MUNDARIJA

Kirish.....	4
-------------	---

I CHORAK

1-mavzu. “Yozgi taassurotlarim” mavzusida kompozitsiya ishlash	5
2–3-mavzu. Kuz manzarasini ishlash	8
4–5-mavzu. Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash.....	14
6-mavzu. Mifologik mavzuda rasm ishlash	18
7-mavzu. Kuz mavzusida ijodiy natyurmort ishlash	22
8-mavzu. 1-nazorat ishi. Kuz mavzusida ijodiy natyurmortni rangda ishlash.....	25
9-mavzu. Fluid art uslubida abstrakt kompozitsiya yaratish.....	28

II CHORAK

10-mavzu. Harakatdagi odam tasvirini ishlash	34
11-mavzu. Siluet mavzusida rasm ishlash.....	38
12-mavzu. Badiiy asarga illyustratsiya ishlash.....	42
13-mavzu. 2-nazorat ishi. Siluet mavzusida rasm ishlash.....	46
14-mavzu. Erkin mavzuda komiks ishlash.....	47
15–16-mavzu. Sharq miniatyura san'ati.....	52

III CHORAK

17-mavzu. Sirk mavzusida kompozitsiya ishlash (erkin uslubda)	60
18-mavzu. Pop art uslubida hayvonlar tasvirini ishlash	66
19-mavzu. Abstrakt kompozitsiyali maket yasash.....	70
20-mavzu. 3D uslubida rasm ishlash	74
21-mavzu. “Zentangle” va “Doodling” uslubida rasm ishlash.....	77
22-mavzu. Mozaika uslubida tasvir ishlash.....	82
23-mavzu. Turli materiallardan fantastik obrazlar yasash.....	86
24-mavzu. Turli materiallar va texnikalardan foydalanib kinetik haykal yasash	90
25-mavzu. 3-nazorat ishi. “Doodling” usulida rasm ishlash.....	93
26-mavzu. Turli materiallardan foydalanib stilizatsiya uslubida haykal yasash	94

IV CHORAK

27-mavzu. Tadbir uchun emblema yaratish	100
28-mavzu. Plakat grafikasi.....	104
29-mavzu. Koinot mavzusidagi abstrakt kompozitsiyani kompyuter grafikasida chizish va bo'yash	108
30-mavzu. Tasavvurdagi modern avtomobil rasmini ishlash.....	114
31–32-mavzu. Plener (ochiq havoda ishlash).....	120
33-mavzu. 4-nazorat ishi. “Mening ixtiroim” mavzusida tasavvur asosida rasm ishlash	124
34-mavzu. Ijodiy ko'rgazma	125

K I R I S H

Aziz o'quvchilar! "Tasviriy san'at" 6-sinf darsligi bilan siz tasviriy san'atning yanada qiziqarli va zamonaviy qirralarini o'zingiz uchun kashf etasiz. Zamonaviy tasviriy san'atning rang-barang va sehrli olami sizga o'zining sirlarini ochib beradi.

Darslik yordamida rasm ishlashning fluid art, pop art, 3D, "Doodling" va "Zentangle" kabi yangicha usullari, kinetik haykal yasash texnikasi, kompyuter grafikasida tasvir ishlash mavzulari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lasizlar.

Mazkur darslik badiiy estetik didingizni shakllantiradi, ijodiy tafakkuringizni rivojlantiradi, sizni innovatsion g'oyalar yaratishga o'rgatadi hamda kasb-hunar egallashga yo'naltiradi.

"Tasviriy san'at" darsligini puxta o'zlashtirish va mustaqil ijod yo'lida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

I CHORAK

1-MAVZU. “YOZGI TAASSUROTLARIM” MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH

Yozgi ta'tilga chiqqach, odatda dam olish uchun tog' yonbag'irlaridagi oromgohlarga, dam olish maskanlariga borasiz. U yerda yangi do'stlar orttirib, ular bilan qiziq sarguzashtlarni boshdan o'tkazasiz. Bu onlar xotirangizga bir umrga muhrlanib qoladi. Yangi o'quv yili boshlanganda yozni qanday o'tkazganingizni do'stlaringizga his-hayajon bilan so'zlab berasiz. Do'stlaringizning hikoyalarini ham miriqib tinglaysiz. Yozgi ta'tilda yodingizda qolgan shunday zavqli lahzalarni “Yozgi taassurotlarim” mavzusida albomingizga tushiring. Bunda siz rassomlar yoz va bolalik mavzularida yaratgan san'at asarlarini kuzatishingiz, o'rganishingiz muhimdir. Rassom asarlaridan ilhomlanib, tasavvuringiz shakllanishiga, ham ajoyib rasmlar chiza olishingizga ishonamiz.

Yoz faslini tasvirlashda kun issiq va quyoshli bo'lismiga, ranglar iliqligi va yorqinligiga ahamiyat berish muhim.



Yozgi oromgohdan lavhalar



Hikmat Rahmonov. Bolalik mavzusidagi asarlar. Moybo'yoq



AMALIY ISH

“Yozgi taassurotlarim” mavzusida kompozitsiya ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o‘quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami;
- qalamtarosh;
- o‘chirg‘ich;
- akvarel;
- guash bo‘yog‘i;
- suv;
- maxsus mo‘yqalamlar;
- palitra.



1




2



3



4



1. Yozgi taassurotlaringiz haqida so'zlab bering.
2. Yoz fasli qanday ranglar bilan ifodalanadi?
3. Yoz va bolalik mavzularida ijod qilgan qaysi rassomlarni bilasiz?



"Yozgi taassurotlarim" mavzusida kompozitsiya ishlashni yakunlash.

2–3-MAVZU. KUZ MANZARASINI ISHLASH

Manzara (peyzaj) – tasviriy san'atda tabiat ko'rinishini aks ettiradigan janr. Manzarada shahar ko'rinishi yoki me'moriy majmular (me'moriy manzara), dengiz ko'rinishlari (marina) va shu kabilar tasvirlanadi. Manzarani turli oqim, yo'nalish va uslublarda ishlash mumkin. Masalan, realizim, impressionizm, abstraksionizm va h.k.

Kuz mavzusi manzarachi rassomlar ijodida yetakchi hisoblanadi. Kuz faslida ranglarning ko'pligi rassomni ohanraboday o'ziga tortadi. Ko'plab xorijiy va mahalliy usta-rassomlarimizning kuz mavzusida yaratgan tasviriy san'at asarlarini kompozitsion tahlil etish, rang va texnika jihatidan puxta o'rganish lozim. Bu jarayon bizning kuz mavzusida ishlaydigan tasvirimizning jonli va mukammal chiqishida asos bo'lib xizmat qiladi.




O'zbekiston tog' va shaharlarda kuz manzarasi (foto)



Videomanba
uchun havola




Kuz manzarasi asosan iliq (xromatik) ranglardan iborat bo'ladi. Sovuq (axromatik) ranglar esa odatda orqa planlarda, uzoqliklarda ko'rinati. Uzoqdagi predmetlar rangining axromatik ko'rinishi havo qatlaming ta'sirida vujudga keladi. Shuning uchun olisdagi predmetlar asl rangiga nisbatan ko'kimtir tus oladi.



Marat Sadikov. Yangiobodda kuz. Akvarel



Videomanba
uchun havola



Ruslan Xalilov. Erta kuz. Akvarel





AMALIY ISH

Kuz manzarasini qalamda ishlash


Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich.







1



2



3



4



"Kuz" mavzusida akvarelda ishlangan asarlardan nusxa ko'chirish.





AMALIY ISH

Kuz manzarasini rangda ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- suv;
- maxsus mo'yqalamlar;
- palitra.





1. Manzara janri haqida nimalarni bilasiz?
2. Akvarelda "Kuz" mavzusida ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz?
3. Yoz va kuz fasllarining o'ziga xos sifatlarini aytинг.



Tabiatga qarab "Kuz" mavzusida rasm ishlash.


4–5-MAVZU. MAYDA PLASTIKADA MILLIY OBRAZLAR HAYKALINI YASASH

Mayda plastika haykaltaroshlik san'atining eng keng tarqalgan turidir. Mayda plastika ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan. Haykaltaroshlikning mayda plastika shaklidagi ilk namunalari qadimgi dunyo odamlari yashagan manzilgohlardan topilan. Ular asosan kichik hajmdagi haykalchalar ko'rinishida bo'lgan. Zamonaviy haykaltaroshlikda mayda plastika interyerni bezatish uchun mo'ljallangan kichik haykalchalar, odam byusti, hayvonlar obrazi yoki boshqa predmetning kichik modeli shaklida bo'lishi mumkin.

Mayda plastikaga antik davrga oid terrakotadan yasalgan, Uyg'onish davriga oid bronzadan ishlangan haykalchalar, XX asr xalq amaliy san'atiga oid qo'g'irchoqlar kiradi.

Mayda plastika haykalchalari turli xil materiallardan ishlanadi. Bular qatoriga gips, tosh, bronza, keramika, chinni, mis, poliester va boshqa materiallarni kiritish mumkin.

Mavzu doirasida plastilindan mayda plastikaga oid kichik haykalcha yasash uchun qog'ozda uning eskizi tasvirlab olinadi. Plastilin bilan ishlashning birinchi bosqichida haykalning umumiy harakat plastikasi topiladi. Keyingi bosqichlarda mayda detallar ishlanadi. So'ng barcha detallar birlashtirilib, umumiy kompozitsiya yaratiladi.



"Mutafakkir" va "O'tirgan holatdagi ayol". Miloddan oldingi 3-mingyllik



Mayda plastikada milliy obrazlar



Mayda plastikada milliy obrazlar

AMALIY ISH

Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- plastilin;
- plastilin bilan ishlash asboblari;
- gips yoki yog'och asos.



1



2



3



4



1. Mayda plastika haykaltaroshlikning qanday turi hisoblanadi?
2. Mayda plastikada qanday materiallardan foydalilanildi?
3. Mayda plastika namunalaridan qanday maqsadlarda foydalilanildi?



Mayda plastikada milliy obrazlar haykalini yasash.

6-MAVZU. MIFOLOGIK MAVZUDA RASM ISHLASH

Mifologik (yunoncha “mythos” – hikoyalar, ertaklar, afsonalar) janrda turli xalqlarning qadimiy afsonalari, an’analari yoki ertaklari syujet uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Mifologik janrda ijobjiy va salbiy afsonaviy obrazlar mavjud. Ijobjiy obrazga semurg’ qushi misol bo’ladi.

Semurg’ Sharq xalqlari poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazdir. Semurg’ yuksaklarga uchish, uzoq manzillarni yaqin qilish, orzularga yetkazish kabi ezgu amallarning ramziy ifodasidir. Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo’lgan. Semurg’ o’zbek xalq ertak va afsonalarida ijobjiy qahramonning do’sti, himoyachisi, hamrohi sifatida gavdalananadi. Turkiy xalqlarda semurg’ning humo, anqo, davlat qushi, baxt qushi, marqumomo, kuntubulg’on va boshqa nomlari bor. Semurg’ obrazi “Qahramon”, “Oynayi jahonnamo”, “Rustam”, “Kenja botir” kabi ertaklarda batafsil tasvirlangan. Semurg’ obrazi Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, Hamid Olimjonning “Parizod va Bunyod” asarida uchraydi.

O’zbekfilm kinostudiysi 1974-yilda “Semurg” nomli film yaratgan. Semurg’ humo qushi sifatida O’zbekiston Davlat gerbida ham tasvirlangan. Toshkentdagi “Turkiston” san’at saroyi oldida semurg’ qushining ramziy monumenti o’rnatalgan.



Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqiga mozaikada ishlangan semurg’ tasviri



Toshkent. Turkiston san'at saroyi



Semurgh' tasvirlari

AMALIY ISH

Mifologik mavzuda rasm ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- rangli qalamlar;
- flomasterlar;
- bo'yoqlar;
- mo'yqalam;
- suv idish;
- palitra.



1



2



3



4



1. Qanday mifologik obrazlarni bilasiz?
2. Chizgan tasviringizni ta'riflab bering.



Mifologik mavzudagi tasvirni yakunlang.

7-MAVZU. KUZ MAVZUSIDA IJODIY NATYURMORT ISHLASH

Natyurmort (fransuzcha “nature morte” – jonsiz tabiat) – tasviriy san’at janri. Bunda insonning atrofini o’rab turgan maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi.


Asosan dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika), qisman haykaltaroshlikda ishlansiadi.

O’zbekiston tasviriy san’atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san’atida (Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar), miniatyura san’atida (Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar – siyohdon, qamchi) uchraydi. Natyurmortning shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30–50-yillariga to’g’ri keladi. Ayni shu davrda rassomlar ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo’ldi: L. Nasriddinov “Nonli natyurmort”, Sh. Hasanova “Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort” va M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V. Ufimsev, N. Kashina, Z. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Y. Yelizarov va boshqalar natyurmort janrida asarlar yarattdi. 60–80-yillarda L. Salimjonova, Y. Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Y. Melnikovlar ijodidan natyurmort keng o’rin oldi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikromjonov, M. Nuriddinov va boshqalar natyurmortda samarali ijod qilib, janr taraqqiyotini ta’minladilar.

Natyurmort janrida ijod qilgan rassomlar asarlaridan namunalar




Videomanba
uchun havola




Murodjon Jumashev. *Natyurmort. Akvarel*



Yusuf Yelizarov. *Natyurmort. Moybo'yoq*



Maqsud Xabibulin. *Natyurmort*



Shalola Tolipova. *Natyurmort*

AMALIY ISH

Kuz mavzusida ijodiy natyurmortni qalamda ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich.



1. Natyurmort qanday janr?
2. Natyurmort janrida ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz?



Kuz mavzusida ijodiy natyurmortni qalamda ishlash.

8-MAVZU. 1-NAZORAT ISHI

Kuz mavzusida ijodiy natyurmortni rangda ishlash



Yuliya Vernigor. Sharqona natyurmort



L. Qing. Kuzgi natyurmort

AMALIY ISH


Kuz mavzusida ijodiy natyurmortni rangda ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- SUV;
- maxsus mo'yqalam;
- palitra.



1



Videomanba
uchun havola

2



3



4



1. Kuz faslida daraxt yaproqlari rangi nega sariq va qizilga o'zgaradi?
2. Xromatik ranglar haqida so'zlang.




Kuz mavzusidagi ijodiy natyurmortni rangda yakunlash.

9-MAVZU. FLUID ART USLUBIDA ABSTRAKT KOMPOZITSIYA YARATISH

Fluid art suyuq ranglar bilan ishlanadigan tasvirdir. Idishga turli xil rangdagi bo'yoqlarni quyish va aralashtirish orqali siz tasavvurni hayratda qoldiradigan noyob tasvirlarni yaratasziz. Suyuq akril abstrakt rasmning zamonaviy shakli bo'lib, bo'yoq xolst (panno) bo'ylab oqadi va rangli effektlarni yaratadi.



Fluid art. Fotolar



Interyerda fluid art. Foto

AMALIY ISH

Fluid art uslubida abstrakt kompozitsiya yaratish

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- akril rangli bo'yoqlar;
- PVA yelim;
- bir martalik qo'lqoplar;
- fartuk;
- nam salfetkalar;
- xolst yoki faner;
- shaffof idish;
- yog'och cho'plar;
- suv.



Fluid art texnikasida ishlash uchun quyidagi mahsulotlar kerak:

Akril bo'yog'i. Fluid art uchun turli akril bo'yoqlaridan foydalanish mumkin.



Bo'yoqlarni aralashtirish uchun suv.



Turli ranglar tayyorlash uchun shaffof plastmassa idishlar.



Bo'yoqni aralashtirish uchun bizga yog'och cho'plar ham kerak bo'ladi. Yoki kichik plastik qoshiqlardan ham foydalanish mumkin.



Panno yoki xolst zarur bo'ladi, yuzasi tekis oddiy faner bo'lagidan ham foydalanish mumkin.



Shunday qilib, barcha kerakli materiallarni tayyorlab, chizish jarayoniga o'tishi-
ngiz mumkin. Tasvirlashda qanday ranglardan foydalanishni avvaldan o'ylab oli-
shingiz muhim.

Oq rangli akrilni suv bilan suyultirib olamiz. Bir xil suyuqlikka kelgunicha tayoq-
cha yordamida yaxshilab aralashtiramiz. Oq suyuq akril bo'yog'imizni shaffof plast-
massa idishga quyamiz. Har bir idishga turli rangli bo'yoqlardan qo'shib, har birini
alohida tayoqcha bilan aralashtiramiz. Ranglar yaxshi aralashishiga ahamiyat be-
ramiz. Bo'yoq suyuqligi qalin qaymoqqa o'xshash bo'lishi kerak.



Endi bo'yoq idishlarini chetga surib, xolst (panno)dan keraksiz narsalarni olib
tashlang va unga rang aralashmalarini quyishga tayyorlaning. Bo'yoqlarni xolst
(pano)ga quyishdan oldin fluid art texnikasida bajarilgan ishlardan namunalar
ko'rish va ilhomlanish tavsiya etiladi.



*Birinchi asosiy ranglarni, masalan, oq va ko'k ranglarni,
keyin qolgan bo'yoqlarni quyishingiz mumkin.*

3



Xolstni qo'iga olib, ranglar yuzani qoplashi uchun
uni og'ma holatda ozroq aylantiramiz.

4



Ranglarga o'zgacha shakl kiritish uchun fenden foydalanamiz.

5



Xolst (panno)ga barcha bo'yoqlarni to'kib, yuzasi qoplangan-dan so'ng, uni quritish mumkin.

Fenni yoqib, bo'yoqqa to'g'riliy whole, yon tomondan havo yubo-ramiz. Shu tarzda bo'yoqlarni turli yo'nalishlarga havo yordamida buramiz va kerakli shaklar hosil qilamiz.

Tasvir kerakli shaklga kirdi, ish jarayoni tugaydi. San'at asa-rini 7–14 kun davomida toza joyda quritish tavsiya etiladi.



Videomanba
uchun havola



1. Fluid art texnikasida ishlash uchun qanday materiallar kerak?
2. Abstrakt tushunchasi haqida nimalar bilasiz?
3. Tasviringizda qanday shakllar paydo bo'lganini izohlab bering.







Fluid art uslubida abstrakt kompozitsiya yaratish.

II CHORAK

10-MAVZU. HARAKATDAGI ODAM TASVIRINI ISHLASH

Odam harakatini yaxshi chizish uchun uni kuzatish kerak. Odam tasvirini ishlaganda gavda mutanosibligini to'g'ri topish va asosiy e'tiborni uning harakatini ko'rsatishga qaratish lozim. Mayda qismlar, burun, og'iz va quloq kabilarni aniq ishlamasdan, balki ularni umumiy tarzda tasvirlash kifoyadir. Odam dinamik holatda juda tez o'zgaruvchan, shu bois uni tasvirlashda qiyinchilik tug'ilishi tabiiy. Odam harakatini egiluvchan nuqtalarni aniqlash va konstruktiv chiziqlar yordamida tasvirlash tavsiya etiladi. Odam harakatini tasvirlashni o'rganish, kelgusi rasm ishlash faoliyatiga va uning muvaffaqiyatli chiqishiga asos bo'ladi.






AMALIY ISH

Harakatdagi odam tasvirini ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq, grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich.



1



2



3



4



1. Odam qomatini qanday geometrik shakllarga o'xshatish mumkin?
2. Odam boshi tanasiga nisbatan nechta keladi?
3. Inson butun gavdasi tasvirlangan qanday tasviriy san'at asarlarini bilasiz?




Harakatdagi odam tasvirini ixtiyoriy uslubda yakunlash.

11-MAVZU. SILUET MAVZUSIDA RASM ISHLASH


Biz siluetlarni nafaqat kitob sahifalarida, balki kundalik hayotda ham uchratamiz.



Ko'pincha siluetlardan belgilarni tasvirlashda foydalaniladi.



Tabiattdagi siluetning eng oddiy namunasi soyadir.



Soya teatri

Siluet – figura va obyektlarning tekis tasviri. Odatda ochiq fonda siyohda, to'q fonda oq rangda yoki qog'ozdan kesilgan grafik texnikaning bir turi sifatida ham namoyon bo'ladi. Portret san'atida keng tarqalgan.



Siluet. Foto



AMALIY ISH

Siluet mavzusida rasm ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel yoki guash bo'yog'i;
- maxsus mo'yqalam;
- SUV;
- palitra.





1. Siluet nima?
2. Siluet haqida nimalarni bilasiz?
3. Qo'l harakatlari yordamida turli hayvonlar siluetini ko'rsatib bering.





Sinfda chizilgan tasvirni yakunlash.

12-MAVZU. BADIY ASARGA ILLYUSTRATSIYA ISHLASH

Illyustratsiya (lotincha “illustratio” – yoritish, ko’rgazmali tasvirlash) – tasviriy san’atning adabiy asar (kitob, jurnal, gazeta)ning obrazli talqini bilan bog’liq sohasi. Matnga qo’shimcha tarzda uning mazmunini obrazli yoritishga, to’ldirishga xizmat qiladi. Ilk qo’lyozma kitoblar paydo bo’lgan davrlarda yuzaga kelgan. Dastlab qo’lyozmalar miniatyuralar bilan bezatilgan, kitob nashr etish va ksilografiyaning yuzaga kelishi illyustratsiyani rivojlantirdi.


Ilmiy, nazariy matn (maqola, kitob va risola)larning mazmunini obrazli yoritadigan, ma’ruzalarda fikrni tasavvur qilishga yordam beradigan ko’rgazmali tasvirlar (reproduksiya, fotosuratlar, turli chizmalar) ham “illyustratsiya” deb ataladi.

Illyustratsiyalarning ta’sirli chiqishi va badiiy asar g’oyasi muallif xohlaganday yoritilishi uchun badiiy asarni bir necha bor o’qib chiqish va chuqur mulohazalar asosida uning eng kulminatsion nuqtalariga illyustratsiyalar ishlash zarur. Badiiy asardagi qahramonlar obrazini gavdalantirishda unga berilgan ta’riflar, asarda bajargan ishlari va xatti-harakatlari, ichki kechinmalarini o’rganish kerak. Bular uning xarakter xususiyatlari, yuz va jismoniy ko’rinishida o’z aksini topishi kerak. Kitobxon badiiy asarni o’qib, unga ishlangan illyustratsiyadan o’z tasavvuridagi obrazni topa olishi lozim.





Galina Li. Ertaklarga ishlangan illyustratsiyalar





X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asariga ishlangan illyustratsiya
(A. Mamajonov, R. Zufarov)



Leonid Zolotarev. Hans Kristian Andersenning
"Qor malikasi" asariga ishlangan illyustratsiya

AMALIY ISH

Hans Kristian Andersennenning “Qor malikasi”
badiiy asariga illyustratsiya ishlash

Tasvir ishslash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- maxsus mo'yqalam;
- SUV;
- palitra.



1



2



3



4



1. Illyustratsiya nima?
2. Qanday badiiy asarlarni o'qigansiz?
3. Badiiy asarlarga illyustratsiya ishlagan rassomlardan kimlarni bilasiz?



Hans Kristian Andersennen "Qor malikasi"
asariga illyustratsiya ishlashni yakunlash.

13-MAVZU. 2-NAZORAT ISHI. SILUET MAVZUSIDA RASM ISHLASH



A M A L I Y I S H

Siluet mavzusida ixtiyoriy rasm ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- maxsus mo'yqalam;
- SUV;
- palitra.



O'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

14-MAVZU. ERKIN MAVZUDA KOMIKS ISHLASH

Komiks (inglizcha "komiks" – kulgili) – chizilgan rasmlardagi hikoya. Komiks adabiyot va tasviriy san'at turlarining xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ba'zan bosma nashrlarda qo'llanadigan kitob va jurnal illyustratsiyasining bir turi.

Birinchi komiksni ingliz karikaturachisi va rassomi Tomas Roulendson chizgan edi. 1812-yildan 1821-yilgacha gazetalarda uning "Doktor sintaksis" haqidagi hikoyalari nashr etildi. Tomas Roulendsonni gazeta *komikslarining otasi* deb atashgan.



Tomas Roulendson. "Doktor sintaksis"

Komiks turlari:


Strip komiks – bir sahifadan ko‘p bo‘lмаган кичик комикс.

Grafik roman komiks – 60 sahifa va undan ortiq hajmda бітта китобда нashr etilgen yaxlit, то‘лиқ асар.

Veb komiks – internetda chop etiladigan комикс.



Sarvar Farmonov. Strip komiks



Iqbol Salohiddinov. Omadsiz qo'shiq. Grafik roman komiks

AMALIY ISH



Erkin mavzuda komiks ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel bo'yog'i;
- suv;
- palitra;
- mo'yqalam;
- rangli qalamlar;
- flomasterlar;
- qora siyohli ruchka.



Umid Sulaymonov. Komiks



1. Komiks qachon paydo bo'lgan?
2. Komiksning asoschisi kim?
3. Komiks haqida qanday fikr dasiz?




Komiksni yakunlash.


15–16-MAVZU. SHARQ MINIATYURA SAN'ATI

Miniatyura (fransuzcha “miniature”, lotincha “minium” – qizil bo‘yoq) – badiiy usullari o‘ta nafis bo‘lgan kichik hajmli tasviriy san’at asari. O‘rta asr qo‘lyozmalarini bezash uchun yaratilgan nafis mo‘jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, metall, chinni, ba’zan maishiy buyumlarga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham miniatyura atamasi qo‘llanadi.

Rangtasvirning bu turi Sharqda, xususan, Movarounnahrda katta shuhrat qozongan. Hozirda u mustaqil san’at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli xil qo‘lda yasalgan buyumlarni bezatishda keng qo‘llanadi. Bu tur mustaqil san’at sifatida yildan yilga ommalashib bormoqda. Miniatyura asarlari turli mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham juda qadim zamonlardan qadimiy qo‘lyozmalarga ishlab kelingan. Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga Kamoliddin Behzod ishlagan miniatyralar bunga misol bo‘ladi.



Kamoliddin Behzod.
Miniatyura asarlari





Kamoliddin Behzod. Shaybonijxon portreti

Sharqda Xoja Abdulhay, Mahmud Siyohqalam, G'iyosiddin Naqqosh, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Basavan, Rizoyi Abbosiya va boshqa rassomlarning nomi mashhur. Temuriylar davrida alohida varaqlarga miniatyuralar ishlash va alohida shaxslar tasviri (portreti)ni ishlash taraqqiy etgan, xususan, Hindistonda boburiylar davrida yuksak darajaga ko'tarilgan.

XIV asr oxirida Samarqand miniatyura maktabi shakllangan, keyinchalik u Hirrot miniatyura maktabining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur qurgan bog'lardagi ko'shklar ham devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar saroylarida alohida kitobxonalar tashkil etilib, u yerda mohir xattot va kitobat ahli, jumladan, musavvirlar ham faoliyat ko'rsatgan. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida ham kitobat san'ati va miniatyura taraqqiyotiga katta e'tibor berilgan. Temuriylar, shayboniyilar, boburiylar davri miniatyura asarlari jahonning eng nufuzli muzeysi, kutubxona va shaxsiy to'plamlarida saqlanadi.

XX asrda Usta Mo'min, A. Siddiqiy, G. Nikitin, Ch. Ahmarov, T. Muhammedov kabi rassomlar ijodida miniatyura an'analari kuzatilgan.

Ch. Ahmarov miniatyura san'ati an'analarini davom ettirdi, uni yangicha mazmun, g'oyalar bilan boyitdi. Shogirdlari esa ustozining ishini davom ettirib, miniatyurani yangi bosqichga ko'tardilar. Bu yo'nalish lokli miniatyura, qog'oz, mato, teri, charmdagi miniatyura va devoriy ishlarni qamrab olib, keng ko'lamlı badiiy uslubiy yo'nalishga aylandi. Hozirgi kunda miniatyura uch yo'nalishda – aynan qo'lyozma (kitob) rasmlari, lokli miniatyura hamda miniatyura uslubida devoriy rasmlar yaratish bo'yicha jadal rivojlanmoqda.



Buyumlarga ishlangan lokli miniatyura



Chingiz Ahmarov.
Shirin. Tempera



Chingiz Ahmarov.
Farg'onacha raqs. Tempera



Laganga ishlangan yog'och oymakorligi va lokli miniatyura



Miniatyura. Amir Temur qabulida. "Zafarnoma"dan

AMALIY ISH

Miniatyura elementlarini ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- suv;
- maxsus mo'yqalam;
- palitra.




1



2



3



4



1. Miniatyura qanday san'at turi?
2. Miniaturada ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz?
3. Miniatyura janri haqida fikringiz qanday?




Miniatyura elementlarini ishlashni yakunlash.





AMALIY ISH

Sodda miniatyura kompozitsiyasini ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- suv;
- maxsus mo'yqalam;
- palitra.





Videomanba
uchun havola



Zamonaviy miniatyura haqida nimalarni bilasiz?



Sodda miniatyura kompozitsiyasini ishlashni yakunlash.

III CHORAK

17-MAVZU. SIRK MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH (ERKIN USLUBDA)

Sirk (lotincha “circus” – aylana, halqa) tomosha san’atining bir turidir. Sirk ko’p hollarda yuma-loq arena va baland gumbazli binoda joylashadi. Sirkda ko’zboylog’ichlik, akrobatika, masxarabozlik, qo’lga o’rgatilgan hayvonlar bilan tomoshalar ko’rsatiladi.

Sirk san’ati turlari akrobatika, gimnastika, ekvilibristika, klounada, jonglyorlik, polvonlik, illyuzionizm, ot o’yinlari, dorbozlik, hayvon o’rgatish kabi janrlarni o’z ichiga oladi.

Birinchi sirkni Angliyada 1768-yili inglez chavandozi, tadbirkor va ixtirochi Filip Astley tashkil etgan. Uni “zamonaviy sirk otasi” deb atashgan.



Filip Astley



Filip Astleyning ilk sirk tomoshalari

Afsonaviy Toshkanboyevlar sulolasining asoschisi Toshkanboy Egamberdiyev 1866-yilning mart oyida Farg'ona vodiysida tavallud topgan. Uning otasi – Egamberdi XIX asrning 50-yillarida Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlariga haj safariga borib, aynan o'sha yerda dorbozlik san'atini o'rgandi. Yurtiga qayt-gach, dor tikib, bu san'atni ommalashtirib, rivojlantirib, xalq orasida Hoji dorboz nomi bilan tanildi.

2017-yilda Toshkanboyevlar sulolasining 150 yillik yubileyi keng nishonlandi.



Toshkanboyevlar sulolasi

Kompozitsiya (lotincha “compositio” – tuzilish, birlashish, bog'lanish) – badiiy asarning mazmunan, xarakter va maqsad jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi.

Kompozitsiyada predmetlar bir-biriga shakl va rang jihatidan uyg'un joylashtiriladi, unda uyg'unlik, ritm hamohang bo'ladi. Shunda yaratilgan asar muakkammal chiqadi.



Toshkent sirkı binosi



Masxaraboz. Foto



Polvon. Foto


Tasviriy san'atda juda ham ko'plab oqimlar, janrlar, uslublar va texnikalar mavjud. Masalan, realizm, abstraksionizm, puantilizm, kubizm va boshqalar. Yaratayotgan kompozitsiyangizni istalgan uslub va texnikada ishlashingiz mumkin. Muhimi, kompozitsiyangiz yorqin, original, puxta o'ylangan hamda o'zida kuchli g'oyani mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Sirk sahnasida yoki milliy bayramlarimiz fonida qo'shimcha sirk elementlari va qahramonlari bilan murakkab kompozitsiya yaratasiz. Sirk qahramonlarining vazifasiga uning yuz va tashqi qiyofasi mos bo'lishi kerak. Masalan, masxarabozni ishlaganda uni quvnoq qilib tasvirlash kerak. Uning masxarabozligi ko'zida, yuzida, liboslari hamda harakatida aks etishi kompozitsiyani yanada jonlantiradi. Kompozitsiya birinchi planida asosiy qahramon tasviriga urg'u beriladi. Asosiy qahramon mayda detallarigacha ishlanadi, 2- va 3-planlar rang va shakl jihatidan umumiyroq tasvirlanadi.



Sirk tomoshasi. Foto



Ilen Meyer. *Sirk. Moybo'yoq*




Marat Sadikov. *Dorboz. Akvarel*

AMALIY ISH


Sirk mavzusida kompozitsiya ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel va guash bo'yoyqlari;
- suv;
- palitra;
- maxsus mo'yqalam.




1




2



3



4



1. Kompozitsiya nima?
2. O'zbek sirk san'ati haqida so'zlab bering.
3. Sirk mavzusida kompozitsion asar yaratgan qaysi rassomlarni bilasiz?






Sirk mavzusida keng qamrovli kompozitsiya ishlash (erkin uslubda).

18-MAVZU. POP ART USLUBIDA HAYVONLAR TASVIRINI ISHLASH

Pop art – G'arbiy Yevropa va AQSH tasviriy san'atida 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarda paydo bo'lgan yo'naliш. Pop art uslubidagi tasvirlar banan, konserva qutisi yoki hayvonlar rasmi bo'lishidan qat'i nazar, har doim yorqin, rang-barang, ifodali va quvnoq xarakterga ega. Shuning uchun ushbu ijro uslubi keng ommaga yoqadi.

Pop art uslubida chizilgan rasmlardan namunalar






AMALIY ISH


Pop art uslubida hayvonlardan biri tasvirini guash yoki akvarel bo'yog'idan foydalanib ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel va guash bo'yoqlari;
- suv;
- palitra;
- maxsus mo'yqalam.




1




2



3



4



1. Pop art qayerda paydo bo'lgan?
2. Pop art uslubi haqida fikringiz qanday?



Uy yoki yovvoyi hayvonlardan biri tasvirini yakunlash.

19-MAVZU. ABSTRAKT KOMPOZITSIYALI MAKET YASASH

Abstraksiya (lotincha “abstractio” – chalg’itish, ajratish, istisno qilish) – mavhum, xayoliy g’oyalar bilan bog’liq bo’lgan tushuncha.


Maket – xomaki loyiha. Me’morchilikda loyihalangan yoki mavjud inshoot, an-sambl, me’moriy majmuaning kichraytirilgan hajmda tayyorlangan nusxasi. Arxitek-tura va interyer sohalarida maket muhim hisoblanadi.

Yaxshi maket loyihasini yaratish uchun foydalaniladigan materiallar va vosi-talarning yuqori sifatlisisini tanlash talab qilinadi. Maket yasashda materiallar ikkita guruhga bo’linadi: asosiy va yordamchi.

Asosiy materiallarga qog’oz, karton, penoplast va plastmassa kiradi. Maxsus yasalgan daraxtlar, chiroqlar, odamlar, o’rindiqlar, avtomobillar, gazon va boshqalar yordamchi materiallardir.


Biz darsda qattiq qalın qog’oz yoki kartondan foydalananamiz.

Abstrakt maket deganda noan’anaviy tasavvur va tafakkur yordamida yaratilgan maketlar tushuniladi. Abstrakt maketlarga Zaha Hadidning zamonaviy binolarini misol keltirishimiz mumkin.




Zaha Hadid.
Grand Rabat teatri loyihasi

Abstrakt bino maketi



Sodda abstrakt maket loyihalari



Davlat Jabborov. Abstrakt maket. Karton

AMALIY ISH


Abstrakt kompozitsiyali maket ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- karton
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- chizg'ich;
- sirkul;
- maxsus pichoq;
- yelim.




Videomanba
uchun havola




1




2



3



4



1. Maket nima?
2. Maket masshtabi deganda nimani tushunasiz?
3. Maket yasash uchun qanday materiallar zarur?



Abstrakt kompozitsiyali maket ishlashni yakunlash.

20-MAVZU. 3D USLUBIDA RASM ISHLASH

Hozirda 3D tasvirlar juda mashhur bo'lib ketdi. Ularni graffiti (uylar va boshqa binolar devorlarida) va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmlarda kuzatishimiz mumkin.

3D o'lchamdagи tasvirlar XVI asrda paydo bo'lgan. O'rta asrlar rassomlari bo'r bilan devorlarga, yo'laklarga rasm ishlangan, keyinchalik ko'plab shaharlarning hokimliklari bunday ijodkorlikni rag'batlantirishni boshlagan. Maqsad – sayyohlarni iloji boricha ko'proq jalb qilish va shahar byudjetini to'ldirish. Odamlar orasida ko'cha san'atiga muhabbat hozirgacha saqlanib qoldi. Kompyuterlarning paydo bo'lishi 3D san'atini yanada rivojlantirdi.



Nikolay Arndt. Asfaltga ishlangan
3D tasvir







Leona Kira. Asfaltga ishlangan
3D tasvir



Karlos Alberto.
Devorga ishlangan
3D tasvir



Hajm yordamida xayoliy 3D effektini yaratishingiz mumkin. Tasvirlanayotgan hajmlar asosan soyalarining xususiyatlariiga bog'liq.







AMALIY ISH

3D uslubida kapalak rasmini turli qalam
yoki ruchkalar bilan tasvirlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- ruchka;
- rangli qalamlar.



1



3



2



4



1. 3D tasvir qachon paydo bo'lgan?
2. Tasviriy san'at va 3D o'lchamli tasvir haqida sizning fikringiz qanday?



3D uslubida kapalak tasvirini yakunlash.


21-MAVZU. “ZENTANGLE” VA “DOODLING” USLUBIDA RASM ISHLASH

“Zentangle” bu – bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishlarni birlashtirgan yangi san’at turi, ijodkorlik, meditatsiya, zavqlanish va mustaqil ish sifatida, naqsh asosida original tasvirlar yaratish uslubi.


“Zentangle” uslubi naqshlarning takrorlanishidan iborat. Ko‘pgina naqshlarni bit-ta rasmda birlashtirish mumkin, texnika juda erkin va intuitivdir. Sizda rassomchilikka qobiliyat bo‘limasa ham, “Zentangle” texnikasida osongina o‘ziga xos va juda qiziqarli asarlar yaratishingiz mumkin.

“Zentangle” 2006-yilda san’at turi sifatida rasman ro‘yxatga olingan. Uning asoschilari Rik Roberts va Mariya Tomasdir.


Klassik “Zentangle” har doim tomonlari 8,9 cm bo‘lgan kvadrat oq qog‘ozga qora siyoh bilan chiziladi. O‘zingizga mos keladigan har qanday qog‘oz va qulay qalam yordamida ijodni boshlashingiz mumkin.



“Zentangle” va “Doodling” uslubi



“Zentangle” uslubida ishlangan naqshlar





“Doodling” (inglizcha “doodle” – chizma) bu – zamonaviy san’atning bir turi, ras-somchilik qobiliyatiga ega bo’lmagan odamlar uchun ham qulay bo’lgan chizish uslubidir.

San’at asarini asosan oddiy aylanalardan yasaydigan ushbu uslub muxlislari dunyoda juda ko’p. “Doodling”da ishlash orqali kompozitsiya yarata olish ko’nik-malari shakllanadi.

“Doodling” uslubida ishlangan rasmlar



Videomanba
uchun havola



AMALIY ISH


“Zentangle” uslubida rasm ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- qora siyohli ruchka;
- flomaster.




1




2



3



4



1. "Zentangle" uslubi qachon paydo bo'lgan?
2. "Zentangle" va "Doodling" uslubi asoschilari kim?
3. "Zentangle" va "Doodling" uslubi haqida fikringiz qanday?



"Zentangle" uslubidagi rasmni yakunlash.

22-MAVZU. MOZAika USLUBIDA TASVIR ISHLASH

Mozaika (fransuzcha “masaïque” – muzalarga bag’ishlangan) – bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog’och, marmar, metall va shu kabi) bo’laklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli (monumental) bezak san’atining asosiy turlaridan. Asosan binolar, amaliy san’at asarlarini bezashda, dastgohli san’at asarlari yaratishda qo’llanadi.



O’zbekiston davlat amaliy san’ati muzeyi devoriga ishlangan kompozitsiya.
Mozaika



Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqiga ishlangan
afsonaviy qush kompozitsiyasi. Mozaika



Mozaika uslubida to'tiqush tasvirini ishlash uchun avvalo to'tiqush rasmini chizib, turli burchakli yoki tutashmasimon egi chiziqli shakllar hosil qilish orqali bo'yash tavsiya etiladi. Bu jarayon to'tiqushni tasvirlashda mozaika bo'laklarini chiroyli joylashtirish imkonini beradi. Mozaika bo'laklarini tayyorlash uchun to'tiqush tasviri ranglari asosida keraksiz rangli jurnal, katalog va shunga o'xshash narsalardan turli rangli qog'oz parchalarini yig'amiz. To'tiqushning rangli shakllarini kesib olib, tasvirga yelim yordamida yopishtiramiz.



Piter Paul Rubens. *To'tiqush*

AMALIY ISH


To‘tiquush tasvirini mozaika uslubida ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o‘quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami;
- qalamtarosh;
- o‘chirg‘ich;
- akvarel yoki guash bo‘yog‘i;
- suv;
- maxsus mo‘yqalam;
- palitra;
- rangli qog‘ozlar, gazeta-jurnallar;
- qaychi;
- yelim.



1



2



3



4



1. Mozaika nima?
2. Mozaika janrida ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz?
3. Mozaikaning applikatsiyadan farqi nimada?



To'tiqush tasvirini mozaika uslubida ishlashni yakunlash.

23-MAVZU. TURLI MATERIALLARDAN FANTASTIK OBRAZLAR YASASH

Zamonaviy haykaltaroshlik barcha zamonaviy san'atlar qatori rivojlanib kelmoqda. Haykaltaroshlikda bugun turli materiallardan foydalanoilmoqda. Loy, gips, plastilin, yog'och, shisha, marmar, tosh, turli xildagi metallar hamda ikkalamchi mahsulotlar shular jumlasidan.

Modern haykaltaroshlikka kubizm, geometrik abstraksiya, de stil, supermatizm, konstruktivizm, dadaizm, syurrealizm, futurizm, ekspressionizm, pop art, minimalizm, postminimalizm, land art, konseptual san'at va boshqalar kiradi.

Qanotli uchar otlar haqida ko'plab afsonalarni bilasiz, ularni badiiy asarlarda hamda kinolarda uchratgansiz. U yaxshilik timsoli sifatida insonlarga yordam beradi, ojizlarni himoya qiladi,adolat yo'lida kurashadi. Hayotda ushbu mavjudot yo'q ekanini yaxshi bilsangiz-da, uning rasmini turli ko'rinishda chizishga, yasashga harakat qilasiz. O'z tasavvuringiz asosida uning obrazini gavdalantirasiz. Keling, bugungi darsimizda plastilin yoki uyimizda bor ikkilamchi mahsulotlardan qanotli uchar ot obrazini yasab ko'ramiz.



Videomanba
uchun havola

Uchar ot rasmi

Turli materiallardan yasalgan uchar ot haykallari



AMALIY ISH

Ikkilamchi mahsulotlardan fantastik obrazlar yasash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- turli qalinlikdagi egiluvchan sim;
- gips yoki yog'och asos;
- plastilin;
- haykal yasash uchun asboblar.



1



2



3



4



1. Ikkilamchi mahsulot deganda nimani tushunasiz?
2. Fantastik obrazlar haqida so'zlab bering.
3. Zamonaviy haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz?



Turli materiallardan fantastik obrazlar yasash.

24-MAVZU. TURLI MATERIALLARDAN VA TEXNIKALARDAN FOYDALANIB KINETIK HAYKAL YASASH


Kinetik san'at, kinetikizm (yunoncha "kinetikos" – harakatga keltiruvchi) harakatlanuvchi effektlar bilan yasaluvchi zamonaviy san'at turi. Texnika sohasidagi taraqqiyot natijasida inson badiiy ifodaning yangicha ko'rinishini kashf etishga harakat qiladi.

Zamonaviy rassomlar va haykaltaroshlar anchadan beri umum e'tirof etilgan "tasviriy san'at" tushunchasidan chiqib ketishgan. Ular haqiqiy ixtirochi sifatida "kinetik san'at" deb nomlangan alohida badiiy yo'nalishni yaratdilar. Kinetizm oddiy g'oyaga asoslanadi. Shamol, yorug'lilik va harakat ta'sirida tomoshabin ko'z o'ngida tom ma'noda "jonlanadigan" darajada san'at obyektini yaratish mumkin. Bugungi kunda hayratlanarli mukammal kinetik haykallar mavjud.




Videomanba
uchun havola

Gollandiyalik rassom Teo Yansen shamollar bilan harakatga keltiliradigan chinakam noyob san'at asarini yaratadi. Qumli plyajlar bo'ylab ulkan o'lchamdagи xayoliy mavjudotlar bemalol aylanib yuradi. Bu sehrlangan tomoshabinlarning to'liq zavq va hayratiga sabab bo'ladi. Bu qahramonlar fantastik asar sahifalaridan chiqib, odamlar orasida yashayotganga o'xshaydi.




Animari. Kinetik haykal



Teo Yansen

Teo Yansen – golland rassomi va kinetik haykaltarosh. Hayvon skeletlarini eslatuvchi, qumli plyajlarda shamol ta'sirida harakatlana oladigan maxsus kinetik haykallari bilan mashhur. Yansen bu haykallarni "hayvonlar", "maxluqlar", "sun'iy hayat shakllari" deb ataydi.



"Strandbeest". Kinetik haykal



Videomanba
uchun havola



AMALIY ISH

Turli materiallar va texnikalardan foydalanib kinetik haykal yasash

Sodda kinetik haykalcha yasash uchun karton qog'oz olamiz va teng ikkiga bukamiz. Plastik idish qopqog'idan foydalanib ikkita doira chizib olamiz. Doiralarga odamchalar tasvirini chizamiz va bo'yaymiz. Qog'ozdan rasmni qirqib olamiz, ikkita odam shakli hosil bo'ladi. Qopqoq ichiga yarmidan sal ko'proq miqdorda zich qilib plastilin joylaymiz. Yelim yordamida odamcha tasvirini qopqoqning old va orqasiga biriktiramiz. Kinetik haykalimiz tayyor, uni stol ustiga qo'yib, harakatga keltirsak ham bo'ladi.

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- karton qog'oz;
- plastik idish qopqog'i;
- flomaster;
- akvarel;
- maxsus mo'yqalam;
- SUV;
- palitra;
- yelim;
- plastilin.



1. Kinetika nima?
2. Haykaltaroshlikda qanday kinetik haykal turlarini bilasiz?
3. Kinetik haykaltaroshlik haqida fikringiz qanday?



Sodda kinetik haykal yasash.

25-MAVZU. 3-NAZORAT ISHI. “DOODLING” USLUBIDA RASM ISHLASH

AMALIY ISH

“Doodling” uslubida ixtiyoriy rasm ishlash



Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- qora siyohli ruchka.




O'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

26-MAVZU. TURLI MATERIALLARDAN FOYDALANIB STILIZATSIYA USLUBIDA HAYKAL YASASH

Tabiatda mavjud real predmet mazmunini yo'qotmagan holda undan badiiy shakllar, timsollar yaratish *stilizatsiya* (uslub) deyiladi. Stilizatsiya san'atning baracha yo'nalishlarida mavjud bo'lib, u maqsad va vazifasiga ko'ra nihoyatda keng tushuncha. Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda keng qo'llanadi.

Haykaltaroshlikda tabiatda mavjud turli o'simliklar, jonzotlar, buyumlarning umumiyligi shaklini olib, undan yangicha mazmun, shakl va san'at asarini yaratish uslubi shakllangan. Qush shaklini eslatuvchi maishiy idishlar, mashina shaklini eslatuvchi turli buyumlar yoki hayvonlar shaklini eslatuvchi abstrakt haykallar stilizatsiyaga misol bo'ladi.





Stilizatsiyaning rivojlanishi yangicha dizayndagi ixtiolar paydo bo'lishiga, sa-noat dizayni rivojlanishiga olib keldi.

Igor Pavlov asarlaridan namuna



Mushuk haykali. Keramika





Stilizatsiya loyihalariidan namunalar



Jan-Pyer Ojye. *Ona* haykali. Metall



Jak Lipshist. *Gitarachi* haykali

AMALIY ISH

Stilizatsiya uslubidan foydalanib odam haykalini yasash

Haykal ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- gips yoki yog'och asos;
- sim;
- plastilin;
- stek (plastilinda ishlash asboblari).



1



2



3



4



1. Stilizatsiya nima?
2. Stilizatsiya uslubida yaratilgan qanday maishiy buyum yoki texnikalarni bilasiz?
3. Stilizatsiya uslubida yaratilgan haykaltaroshlik asarlari haqida fikringiz qanday?



Stilizatsiya uslubidan foydalanib odam haykalini yashashni yakunlash.

IV CHORAK

27-MAVZU. TADBIR UCHUN EMBLEMA YARATISH



Emblema (nishon, timsol) ommaga tushunarli, aniq va ravon tasvirlangan bo'lishi lozim. Emblemalarda odatda ramziy belgilardan foydalanilgan. Bugungi kunda esa noodatiy abstrakt emblemalar dizayni urf bo'lmoqda.




Emblemalar shtamp, logotip, brend kabi tushunchalar bilan uyg'un. Texnik taraqqiyot tufayli sanoat, ta'lim, tibbiyat, biznes, tadbirkorlik kabi boshqa ko'plab sohalarda ham emblemalar rivojlanib bordi. Turli tashkilotlar, firmalar, muassasalar o'z maqsad va vazifalariga mos logotiplariga ega. Ushbu logotiplar orqali insonlar ular haqida bilishadi. Bugungi kunda original, takrorlanmas emblemalar, logotiplar ning juda ko'plab turi mavjud.



Respublika
ta'lim markazi





Maktabda turli xil bayramlar, tanlovlarga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etiladi. Ushbu tadbirlarda emblemalar yaratish muhim. Emblemada guruh nomi, uning maqsadi, g'oyasi aks etadi. Dastlab tadbirning o'ziga xosligi, xususiyatini aniqlab olishingiz kerak. Nishonda guruhning qaysi jihatlarini ko'rsatmoqchi ekaningizni aniqlashtirasiz.

Emblemani modern (zamonaviy), minimalizm (kam belgili, sodda), abstrakt, stilizatsiya va boshqa uslublarda yaratish mumkin. Nishon g'oyasi tayyor bo'lgach, elementlar chizib olinadi. Elementlarni kompozitsion joylashtirish uchun turli shakl va ranglarda eskizlar bajariladi. Ranglar hamohang, tadbir mazmuniga mos va xos, yorqin, ajralib turuvchi va insonlarni o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi juda ahamiyatli. Ota-onangiz, yaqinlaringiz va ustozingiz ko'magida bajarilgan eskizlardan ma'quli ni tanlash maqsadga muvofiq.




AMALIY ISH

Tadbir uchun emblema yaratish


Emblema ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- SUV;
- maxsus mo'yqalam;
- palitra.






1



2



3



4



- Emblema nima?
- Emblema va logotipning farqi nimada?



Tadbir uchun emblema yaratish.

28-MAVZU. PLAKAT GRAFIKASI

Plakat (nemischa “plakat” – e’lon, afisha) – grafika turi, katta varaqqa ishlangan tasviriy san’at asari. Plakatda qisqa matn ilova qilinadi. U tashviqot, reklama, axborot va o’quv-ta’lim maqsadlariga xizmat qiladi.

Plakat grafikasi targ’ibot ma’lumotlarini ixcham shaklda o’z ichiga olgan, ko’r-gazmali, katta formatdagi bosma nashrdir.

Zamonaviy plakat odatda rassom yaratgan asl nusxadan bosmaxonada ko’paytiriladi.

O’zbekistonda plakat XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo’ldi, XX asrning 20-yillaridan keng tarqaldi. Dastlabki yillarda qo’lda ishlangan va ko’paytirilgan. Bosma plakatlar 1923–1924-yillardan chop etila boshlandi. Usta Nabi Hafizov, M. Kurzin, V. Ufimsev, V. Kaydalov va boshqa rassomlar ushbu yo’nalishda samarali ijod qilgan. 1960–1980-yillarda A. Balkanov, V. Gromiko, F. Kagarov, V. Yevenko, T. Tkachev va boshqa rassomlarning tinchlik, axloq, iqtisod, madaniy-ma’rifiy mavzulardagi asarlari yaratildi.


Jumladan, F. Kagarovning tinchlik mavzusidagi plakatlari xalqaro anjumanlarning ramziga aylandi.

Plakatning quyidagi turlari mavjud:


- teatr plakatlari;
- reklama plakatlari;
- targ’ibot-tashviqot plakatlari;
- kino afishalari;
- musiqa plakatlari;
- sport plakatlari;
- ijtimoiy plakatlari;
- o’quv plakatlari.



X. Muratov. *Tabiatni asrang*



F. Kagarov.
Tinchlik



AMALIY ISH

“Ekologiyani asrang” mavzusida plakat ishlash

Tasvirni ishlash uchun zarur o‘quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami;
- qalamtarosh;
- o‘chirg‘ich;
- akvarel;
- guash bo‘yog‘i;
- suv;
- maxsus mo‘yqalam;
- palitra.




1



2



3



4



1. Plakat grafikasi nima?

2. Plakat grafikasida ijod qilgan qaysi rassomlarni bilasiz?



"Giyohvandlikka qarshimiz" mavzusida plakat ishlash.

29-MAVZU. KOINOT MAVZUSIDAGI ABSTRAKT KOMPOZITSIYANI KOMPYUTER GRAFIKASIDA CHIZISH VA BO'YASH

Bugungi kunda tasviriy san'at sohasiga ham zamonaviy kompyuter texnologiyalari jadal kirib kelmoqda. Kino, animatsiya, reklama va dizayn sohalarida kompyuter texnologiyalari va dasturlari tasvirlar ishlashda qulayliklar yaratmoqda. Vaqt tejalishi, murakkab jarayonlardagi muammolarning oson hal qilinishi, ko'plab vazifalarni kompyuter dasturlarining o'zi avtomatik bajarishi shular jumlasidan.

Grafik dasturlar



Paint



Krita



Photoshop



Corel Draw



Krita – bepul va ochiq manbali rastrli grafik dastur. Nomi shved tilidan olingan bo'lib, "bo'rda chizish" degan ma'noni anglatadi. Asosan rassomlar va fotosuratchilar uchun ishlab chiqilgan. Mazkur dasturni kompyuterga o'rnatib, tasvir chizishni o'rganamiz.




<https://krita.org/en/download/krita-desktop/>

Krita dasturini quyidagi havola yoki QR kodni skanerlash orqali yuklab olishingiz mumkin.





Dastur o'rnatilganda kompyuter ekranida dastur logotipi paydo bo'ladi.


Dasturni ishga tushirganimizda dastur oynasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Yangi hujjat yaratish uchun ekranning chap yuqori qismida "New File" (Ctrl+N) tugmasi bosiladi.




“New File” (Ctrl+N) tugmasi bosilganda quyidagi yangi kichik oyna ochiladi. Mazkur oynada ochilishi rejalashtirayotgan yangi sahifaning o‘lchamlari, shakli, ranglari, sifati, avval ishlangan loyihalarni yuklash, fayl turi kabi bir qancha funksiyalar mavjud.



“Create” tugmasini bosgach, yangi hujjat oynasi hosil bo‘ladi.



Oq oyna rasm chizish chegarasi hisoblanib, uning yuqori, chap va o'ng qismlarida rasm chizish uchun zarur ish qurollari va ranglar palitrasasi mavjud.



Mo'yqalam tanlash bo'limida o'chirg'ich, qalam, mo'yqalam, bo'yoq turlari va fakturalari, tog', maysa, daraxt shakllari, purkab sepish fakturasi va shu kabi ko'plab chizishni yengillashtiruvchi tayyor kontentlar mavjud.

AMALIY ISH

Koinot mavzusidagi abstrakt kompozitsiyani kompyuter grafikasida chizish va bo'yash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:



- kompyuter yoki planshet;
- Krita dasturi.



Koinot mavzusida kompyuter grafikasida rasm ishlash uchun birinchi navbatda kompozitsiyani chizib, bo'yab olamiz. Tayyor kompozitsiya eskizidan foydalanib Krita grafik dasturida chizamiz.

Quyidagi QR kod orqali "Koinot" mavzusida Krita dasturida chizilgan videoga o'ting.





1. Koinot haqida nimalarni bilasiz?
2. Qanday grafik dasturlarni bilasiz?
3. Krita dasturi va uning imkoniyatlari haqida fikringiz qanday?



Koinot mavzusidagi abstrakt kompozitsiyani erkin uslubda ishlash.

30-MAVZU. TASAVVURDAGI MODERN AVTOMOBIL RASMINI ISHLASH

Kelajak va uni tasavvur qila olish juda muhim. Ko'plab ixtiolar xayolot olami, fantaziya va ilmiy farazlar orqali yuzaga kelgan. Havoda uchar mashinalar, zamonaviy shahar landshaftlari, g'alati yoritilgan binolar – bularning barchasi bir qarashda xayolotga o'xshardi. Insonlarning ushbu tasavvurlari bugun hayotga ko'chib ulgurdi.



Kelajak avtomobilari dunyosi ko'z o'ngimizda tasavvur qilib bo'lmaydigan tezlikda o'zgarmoqda. Yaqinda odamlar ot-aravalarda yurishgan edi. Hozirgi holatga qarab esa kelajakda bizni nima kutayotganini tasavvur qilish qiyin emas.

Olimlar yaqin kelajakda bio yoki quyosh energiyasi kabi muqobil yonilg'iga o'tishni bashorat qilmoqdalar. Shu munosabat bilan avtomobillarning tashqi ko'nishi ham o'zgaradi. Zamonaviy avtomobilarni yaratishda barcha jihatlarga e'tibor qaratish muhim. Masalan, avvalo inson hayoti uchun har tomonlama xavfsiz, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, aksincha, foydali, yo'l tirbandliklari kabi bir qator muammolarga yechim bo'ladigan avtomobillar ixtiro qilinishi lozim.



Kelajak avtomobili loyihasi



Kelajak avtomobili

Benzinli dvigatel bilan jihozlangan oddiy avtomobil va samolyot gibridi 2500 metr balandlikkacha ko'tarilish va 1000 km masofani bosib o'tishga qodir kelajak avtomobilidir. Klein Vision kompaniyasi ishlab chiqqan ushbu avtomobil 2 minut 15 sekundda samolyotga aylanadi. Havoda soatiga 170 km tezlikka erishadi. Kabinaga ikki kishi sig'adi.



Videomanba
uchun havola


Avtomobil va samolyot gibridi

AMALIY ISH


Tasavvurdagi modern avtomobil rasmini ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:


- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- suv;
- maxsus mo'yqalam;
- palitra.



1




2



3



4



1. "Modern" so'zining ma'nosi nima?
2. Qaysi turdag'i avtomobil modellarini bilasiz?
3. Kelajak avtomobillarini qanday tasavvur qilasiz?



Tasavvurdagi modern avtomobil rasmini ishlashni yakunlash.

31–32-MAVZU. PLENER (OCHIQ HAVODA ISHLASH)

Plener (fransuzcha “en plein air” – ochiq havoda) quyosh nuri va atrofdagi atmosfera ta’sirida rang o’zgarishining rasmdagi tasvirini bildiruvchi atamadir. Plener ustaxonada emas, balki tabiat qo’ynida rasmlar yaratishni bildiradi. Bu jarayon tabiatni tabiiy ranglarda tushunish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Tabiat go’zalligi, uning takrorlanmasligi o’ziga xosdir. Quyosh nuri va atrofimizni o’rab turgan muhit ranglar uyg’unligining bitmas-tuganmas manbaidir. Tabiat, atrof-muhitning insonga, uning hissiyot va tafakkuriga chuqur ta’siri tasviriy san’atda manzara janrining vujudiga kelishiga turtki bo’ldi.


Tasviriy san’atning manzara janrida yaratilgan asarlar bilan tanishish inson ruhiy olamini mustahkamlaydi, ichki tuyg’ularini boyitadi. Tabiat go’zalligini haqqoniy tasvirlash unga nisbatan rassom munosabatini belgilaydi. Shu sababdan ham manzara janri inson hissiyotini nafosatli qilib tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Plenerning paydo bo’lishi XIX asr boshlarida Angliyada yashagan rassomlar Jon Konstebel va Richard Parkes Bonington nomlari bilan bog’liq. Plenerizm uslubi fransuz impressionistlari orasida juda mashhur bo’lgan. Jan-Batist Kamil Korot, Jan-Fransua Millet, Kamil Pissarro, Pyer-Ogyust Renuar va Klod Mone kabi rassomlar plener rivojlanishiga hissa qo’shgan. Rossiyada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida plener tasvirida Vasiliy Polenov, Isaak Levitan, Valentin Serov, Konstantin Korovin, Igor Grabar muvaffaqiyatli ijod qilgan.

O’zbekistonda O’. Tansiqboyev, P. Benkov, R. Axmedov, N. Qo’ziboyev, Z. Inog’omov, M. Saidov va boshqalar manzara janrida ijod qilgan.




Rassom Robert Antuan Pinchon
plenerda. 1898-yil



Avstraliyalik impressionist
Artur Striton plenerda. 1892-yil



Videomanba
uchun havola



Plener jarayoni va chizilgan rasmlar

AMALIY ISH

Plenerda tabiatning o'ziga qarab rasm ishlash

Tasvir ishlash uchun zarur o'quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami;
- qalamtarosh;
- o'chirg'ich;
- akvarel;
- guash bo'yog'i;
- suv;
- maxsus mo'yqalam;
- palitra.





Videomanba
uchun havola


1




2



3



4



1. "Plener" so'zining ma'nosi nima?
2. Plenerda ijod qilgan rassomlardan kimlarni bilasiz?
3. Plenerda rasm ishlashda nimalarga ahamiyat berish zarur?



Plenerda bino ko'rinishi tasvirini akvarelda ishlash.
O'quv yili davomida bajarilgan barcha vazifalar va mustaqil
ijodiy ishlarni ko'rgazmaga tayyorlash.

33-MAVZU. 4-NAZORAT ISHI. “MENING IXTIROIM” MAVZUSIDA TASAVVUR ASOSIDA RASM ISHLASH



“Mening ixtiroim” mavzusida tasavvur asosida rasm chizish uchun avval ixtiroingiz mavzusini muhokama eting va nomlang. Quyidagi savollar “Mening ixtiroim” rasmini ishlashga yordam beradi.

1. Ushbu ixtiro qanday foyda keltiradi va nima uchun mo’ljallangan?
2. Ixtironi yaratishda qanday materiallardan foydalaniadi?

A M A L I Y I S H

“Mening ixtiroim” mavzusida tasavvur asosida rasm chizish

Tasvir ishlash uchun zarur o’quv qurollari:

- rasm daftari;
- qattiq va yumshoq grafit qalamlar to’plami;
- qalamtarosh;
- o’chirg’ich;
- akvarel;
- guash bo’yog’i;
- suv;
- maxsus mo’yqalam;
- palitra.



O’tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

34-MAVZU. IJODIY KO'RGAZMA

Ko'rgazma eng qiziqarli muloqot vositalaridan bo'lib, ijodiy faollikni rag'batlantirish usullaridan biridir.

Ko'rgazma butun jamoaning (guruh ko'rgazmalari) yoki individual (shaxsiy) yutuqlarni namoyish qilishi mumkin.

Ko'rgazma turlari mavzuli, yakuniy, yarmarkalar, tanlovlardan, taqdimotlar ko'rinishida bo'ladi.

Ko'rgazmani tashkil qilish juda ko'p mehnat talab qiladigan ish. Siz ko'rgazma ishtirokchisi va tashkilotchisi sifatida ishtirok etasiz. Ijodiy mehnat jarayonida qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, ish bajarishning eng to'g'ri uslub va usullarini tanlay olish kabi qimmatli fazilatlar shakllanadi, bu esa o'z kuchini sinab ko'rish va muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

AMALIY ISH

Ijodiy ko'rgazma



O'quv yili davomida ishlagan ijodiy ishlaringiz sarhisobi sifatida ko'rgazma tashkil eting.



1. Ko'rgazma nima?
2. Ko'rgazmaning qanday turlarini bilasiz?
3. Tashkil qilingan ko'rgazma haqida fikringizni ayting.



O'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

O'quv nashri

Tasviriy san'at

*Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining
6-sinf uchun darslik*

Rassom *Umid Sulaymonov*
Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti talabalarining ijodiy ishlaridan foydalanildi.*

Bosishga 15.06.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturası. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 18,88. Nashriyot-hisob tabog'i 12,16.
Adadi ___ nusxa. Buyurtma № ___.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda
yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi
baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.

Sotuvga chiqarish taqiqlanadi

RMKJ



Respublika
ta'lim markazi

ISBN 978-9943-8173-2-6

9 789943 817326